



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



ZAMONAVIY O'QITISH METODLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISHDA SUN'IY INTELEKTNING AHAMIYATI

Toshboyeva Ruxshona Shoxmardonovna

Jizzax Davlat Pedagogiuniversiteti

Matematika va informatika

2-bosqich talabasi

Annontatsiya: *Tezisdagi sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga samarali joriy etishdagi roli va ahamiyati yoritilgan. Ta'lim tizimida yuz berayotgan raqamli o'zgarishlar natijasida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, interaktiv va samarali ta'limga talab ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilayotgan personalizatsiyalashgan o'qitish, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, virtual yordamchilar kabi innovatsion yondashuvlar zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashgan holda ta'lim samaradorligini oshirmoqda. Tezisdagi ushbu texnologiyalarning afzalliklari, amaliy qo'llanilish holatlari hamda kelajak istiqbollari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, zamonaviy ta'lim, zamonaviy o'qitish metodlari, shaxsiylashtirilgan ta'lim, intellektual repititorlar, baholash tizimlari*

THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE IMPLEMENTATION OF MODERN TEACHING METHODS

Toshboyeva Ruxshona Shoxmardonovna

Jizzakh State Pedagogical University

Mathematics and computer science

2nd year student

Annotation: *The thesis explores the role and significance of artificial intelligence technologies in the effective implementation of modern teaching methods within the educational process. As digital transformations continue to reshape the education system, there is a growing demand for interactive, efficient, and personalized learning tailored to the individual needs of students. From this perspective, innovative approaches such as personalized instruction powered by AI, automated assessment systems, and virtual assistants are being effectively integrated with modern teaching methods to enhance learning outcomes. The thesis analyzes the advantages of these technologies, their practical applications, and future prospects.*

Keywords: *artificial intelligence, modern education, modern teaching methods, personalized learning, intelligent tutors, assessment systems*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Bugungi kunda ta'lim sohasi global miqyosda raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Bu jarayonning eng muhim omillaridan biri — sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridir. An'anaviy o'qitish uslublari zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlariga to'liq javob bera olmay qolmoqda. Shu bois ta'limda yangicha, interaktiv, individual yondashuvga asoslangan metodlar talab etilmoqda. Sun'iy intellekt esa bu ehtiyojlarni qondirishda katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Su'niy intellekt ta'lim oluvchining vaqtini tejashga va ta'limda muvaffaqiyatli rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Su'niy intellektning imkoniyatlari keng qamrovli bo'lib, u sizni qiziqtirgan savollarga javob berishi, berilgan buyruq asosida rasm chizishi yoki turli mavzularda taqdimotlar yaratishi va xattoki, turli refarat va maqolalar ham yozib bera olishi imkoniyatiga ega. Uning ta'lim algoritmlari, talabalarning individual xususiyatlari va o'rganish usullari asosida moslashtiriladi, bu esa har bir talabaning o'ziga xos ta'lim yo'lidagi qobiliyatlarini oshiradi.

Davlatimizda ta'lim-tarbiya sohasining hamma tarmoqlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, yangi muassasalar bunyod qilish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan faoliyatlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi. Sun'iy intellekt tez takomillashayotgan texnologiya sohasi bo'lib, u insoniy tafakkurga o'xshash muommolarni hal qilish, tahlil qilish va o'rganish qobilyatiga eg dasturlar va tizmlarni angatadi. U talim tizimida quyidagi asosiy yo'nalishlarda qo'llanilmoqda:

- Shaxsiylashtirilgan ta'lim – AI yordamida har bir o'quvchining bilim darajasiga mos kurslar ishlab chiqish.
- Intellektual repititorlar – AI asosida ishlovchi virtual o'quvchilar orqali mustaqil o'rganish jarayonini takomillashtirish.
- Baholash tizimlari – Su'niy intellekt avtomatik testlar va imtihonlarni tekshirishi, natijalarni tahlil qilishi mumkin.

Sun'iy intellekt va zamonaviy o'qitish metodlari:

Zamonaviy o'qitish metodlari o'quvchiga yo'naltirilgan, muammoli vaziyatlarda fikrlashga undovchi, texnologik vositalardan faol foydalanishga asoslangan usullardir.

Sun'iy intellekt bu jarayonda interaktivlik, individual yondashuv va real vaqt rejimidagi tahlil kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Sun'iy intellektning o'quv jarayonidagi asosiy funksiyalar

Adaptiv tizimlari	o'quv	Har bir o'quvchining bilim darajasiga moslab dars materiallarini avtomatik ravishda sozlash.
Virtual yordamchilar		O'quvchilarga doimiy maslahat beruvchi chat-botlar yoki ovozli yordamchilar.
Test va baholash		Imtihonlarni avtomatik baholash, xatoliklarni tahlil



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



tizimlari	qilish.
Tahliliy platformalar	O'qituvchiga o'quvchilarning rivojlanishini real vaqtda tahlil qilib beruvchi vositalar.

Amaliyotdagi foydali natijalar:

- Dars sifati va samaradorligi oshadi.
- O'qituvchi yuklamasi kamayadi, chunki baholash va monitoring avtomatlashtiriladi.
- Har bir o'quvchiga individual yondashuv ta'minlanadi.
- Masofaviy ta'limda interaktivlik oshadi.

4. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ba'zi mashhur ta'lim platformalari:

  	o'quvchining yutuqlariga asoslanib, yangi materiallar tavsiya qiladi.
 	yozuvlarni tahlil qiladi, takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi.
 	o'quv jarayonini boshqarishda sun'iy intellektdan foydalanadi.

Xulosa: Zamonaviy o'qitish metodlarini muvaffaqiyatli joriy etish sun'iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni talab etadi. SI o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, interaktivlashtirish va avtomatlashtirish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Kelajakda sun'iy intellektning roli yanada ortishi kutilmoqda, shu sababli uni o'quv jarayoniga integratsiyalash har bir o'qituvchi va ta'lim muassasasi uchun dolzarb vazifadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). *Three generations of distance education pedagogy*. International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12(3), 80–97.
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign.
3. Luckin, R. et al. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



4. UNESCO (2021). *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000376709>

5. Qodirov, S., & Karimova, G. (2023). *Sun'iy intellekt va ta'lim texnologiyalari: yangi davr imkoniyatlari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

6. Azizova, M. (2022). *Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni*. – "Pedagogik mahorat" ilmiy jurnali, №4, 56–60-betlar.